

MASJIDLAR ALLONING UYI

Shokirova Roziya Nozimjon qizi

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom Instituti 4-bosqich bakalavri

Tel: +998901787521 shokirovislom21@gmail.com

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, asl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullas, Vatanining tarixini bilishni istaydi.

Qadimiy obidalarimiz yurtimizda har bir shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turadi. Tarixdan ma'lumki, Sohibqiron Amir Temur bobomiz har bir zafarli yurishlaridan so'ng saltanatda biror bir inshoot barpo ettirib, g'alabani nishonlagan. Buning zamirida naqadar purma'no hikmat mavjud. Shahrisabzda qad rostlagan Oqsaroyning koshinkor peshtoqining guldor naqshlari orasiga "Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, biz qurdirgan imoratlarimizga boq!" degan xitobnoma bitilgan. Bu imoratlar haqiqatda davlatning qudrati va mahobatini aks ettirib turgan.

Shu borada ulug' ajdodlarimizning bebaho madaniy va marifiy merosni, muqaddas qadriyatlarimizni tiklash va hayotga qaytarish bilan birga hayotimizni zamonning eng ilg'or yutuq va mezonlari bilan boyitish, komil inson, barkamol avlodni voyaga yetkazish, talim-tarbiya ishini mutloqo yangi negizda tashkil etish, muqaddas dinimizga hurmat-ehtirom – faoliyatimizning mano-mazmunini belgilab kelmoqda. Shu qatori tarixiy qadamjolar sirasida tarixiy masjidlar ham o'z o'rniga egadir.

Ma'lumki, masjid arab tilidan o'zbekchaga tarjima qilganda "sajda qilinadigan joy" ma'nosini anglatadi. Ular qadimdan musulmonlar jamoa bo'lib namoz o'qiydigan joy, ibodatxona vazifasini bajaradi. Masjidlarda, asosan, kundalik besh vaqt namozlar o'qiladi. Juma va hayit namozlari esa, jome' masjidlarda o'qilgan.

Islomdagi birinchi masjid Payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) Makkadan Madinaga hijrat qilganlaridan so'ng o'sha shaharda qurilgan.

Masjidlar dastlab shaharlarda, keyinchalik qishloq va mahallalarda barpo etilgan. Masjidlarning to'rida, Makkaga qaragan (qibla) tomonida mexrob, hovlisida hovuz, bir yoki bir nechta minorasi bo'lgan. Ayrim yirik masjidlar mexrobining o'ng tomonida va'zxonlik uchun mo'ljallangan minbar, ba'zilarida esa, Kur'on o'qiladigan maxsus joylar ham bo'lgan. Masjidlarda juma va hayit namozi kunlari imom-xatiblar xutba o'qib, turli diniy masalalar bo'yicha ma'ruzalar qiladi. Ba'zi madrasalar huzurida maktablar bo'lib, ularda o'g'il bolalarga Qur'on va boshqa ilmlardan saboq berilgan. O'zbekistondagi masjidlarning faoliyati to'g'risida ham to'xtalib o'tamiz.

Poytaxti azam bo'lmish Toshkent masjidlaridan boshlaylik. Toshkent masjidlari soni to'g'risida rus manbalari va arxiv hujjatlarida turlicha ma'lumotlar berilgan. Xususan, arxiv hujjatlarida Beshyog'och dahasida 54 ta, Shayxontahur dahasida 105 ta, Ko'kcha dahasida 60 ta, Sebzor dahasida 78 ta masjid borligi qayd etilgan bo'lsa, N. Mayev Beshyog'ochda 68

ta, Shayxontaxurda 60 ta, Ko'kchada 51 ta, Sebzorda 10 ta katta masjidni tilga olgan. Ayrim mualliflar, shaharda 280 — 310 ta atrofida masjid borligini qayd etganlar. A.P. Xoroshxin esa toshkentlik suhbatdoshidan olgan ma'lumotlariga aniqlik kiritib, masjidlarning 260tasi shahar ichida, 40 tasi tashqarisida, deb ko'rsatadi.

Suzuk ota – asli Suzukota shaxsi bilan bog'liq masjid bo'lib. Suzuk otaning asl ismi Mustafuqul bo'lib, 1140 yilda Turkistonning Qorachuq qishlog'ida tavallud topgan. U kishi Ahmad Yassaviyning qizi Gavhari Hushtojning kenja o'g'li bo'lgan. Balog'atga yetgach, karomatlar sohibi Toshkentdagi "Chaqar", "Chuqurko'prik" (Cho'ponota) va "Mirlar" mahallalariga tutash bo'lgan kimsasiz, tepalik va jarliklardan iborat yerda qo'nim topib, shu mahallani obod qilishga kirishadi. Suzuk ota hunarmandlarning ustoz, yuzlab shogirdlarga ilm berib, halol mehnatga o'rgatgan zotdir. Bolalik chog'ida bobosi u kishini erkab, "Mening suzigim (suyukligim), hush keldingiz!", degani bois atrofdagilar ham shu ism bilan chaqira boshlagan. Yuzlab shogirlarning ustoz, Suzuk ota 1217 yilda vafot etgan. 1363-1364 yillarda Amir Temur Ahmad Yassaviyning nabirasi Suzuk ota qabri ustida maqbara va masjid bunyod ettirgan. Xonaqoh va ayvonda yetti yuzga yaqin namozxon ibodat qilishi mumkin bo'lgan.

Xo'ja Ahror Valiy jome masjidi – qurilish davri 15-asrga borib taqaladi. Xoja Ahror qurdirgan, shaharning bosh jome masjidi bo'lgan, Usmon Qur'oni shu yerga keltirilgan edi. 1875 yil chor ma'murlari tomonidan buzib tashlangan. Usmon Qur'oni Samarqandga olib ketilgan. 1886 yil mahalliy aholi noroziligidan xavfsiragan chor ma'muriyati masjid binosini qayta qurib bergan. 1999 yil masjid poydevorini buzish paytida uni shu yili qurilgani haqidagi yozuv topilgan. Ammo ruslar tomonidan bunyod etilgan bu inshoot masjid bo'lmay, kelgusida cherkovga mo'ljallangan bo'lgan. Masjid binosi ichida mehrob o'rniga ikona o'rnatadigan xochchalar qilingan edi.

Mo'yi Muborak (Ukkosha) - Masjidning qurilish tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, uning "Ukkosha" nomi qadimiyroqdir. Bu ism Rosululloh S.A.V. ning sahobalaridan birining ismi bo'lib, uning to'liq ismi Ukkosha ibn Mihsan ibn Harsan al-Asadiy bo'lib, 16-17 asr muarrixlari Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" va Muhammad Tohirning "Ajoyib ut-taboqat" asarlarida Toshkent shahridan tashqari Balx shahri tashqarisida ham hazrati Ukkosha qabri borligi qayd qilingan. Aslida hazrati Ukkosha xalifa Abu Bakr R.A. davrida (632-634 m.y) soxta payg'ambar Tulayha ibn Huvaylidga qarshi jangda o'ldirilgan va Toshkent hamda Balx shaharlaridagi qabrlar ramziy hisoblanadi. Toshkentdagi hazrati Ukkosha mozorining qaysi davrdan shakllangani haqida aniq fikr aytish qiyin. Har xolda hazrati Ukkosha mozorida Baroqxon davrigacha ham namozgoh masjid mavjud bo'lgan. Mazkur namozgohdan aholi 17-asr davomida ham foydalanib kelgan. Xususan, Ashtarxoniy Subxonqulixon (1681-1702) muxri bosilgan Hoja Alambardor mozoriga mutavalli tayinlash haqidagi bir yorliqda Toshkent namozgohi zamini tilga olinadi. Namozgoh qalmoqlarning Toshkentga hujumidan keyin (18 asrning 20 yillari) qarovsiz qolgan va 19-asrga kelib yozma manbalarda "Ko'hna namozgoh" yoki "Eski namozgoh" deb tilga olingan. Hatto bu nom ko'cha va mahalla nomi sifatida Hazrati Ukkosha qadamjoyi va mozor yaqinidagi shifobaxsh buloq, shahardagi gavjum ziyoratgohlardan bo'lgan.

Masjidning “Mo‘yi-Muborak” deb nomlanishining sababi 20-asrning boshlariga qadar masjid xonaqohida Rasululloh S.A.V. ning muborak soqol tolalari shisha idishga solinib yuqori qismiga osilgan holda saqlanib turganligi haqida mahalla keksa yoshli otaxonlar tomonidan rivoyat qilingan.